

Judicial and Legal System Reforms in New Uzbekistan

Norquvvat Yangiboyev

Associate Professor (TerDU), Lecturer, Department of Criminal Law and Civil
Procedure Faculty of Law, Termiz State University

Muxammadov Muhammadali Sirodj o'g'li

Shahriyorov Navro'z Tohirovich

Students, Faculty of Law Termiz State University

Abstract

This article provides a detailed analysis of the digitalization of the judicial system and its practical significance. In particular, it highlights how the gradual implementation of digital technologies in court activities has significantly simplified and accelerated case management processes. The introduction of electronic document systems has reduced excessive paperwork and made data storage and access more efficient.

Additionally, the possibility of conducting court hearings remotely via videoconferencing has contributed to saving time and costs for citizens and organizations. This is especially beneficial for participants living in remote areas. The availability of online services for submitting applications, tracking case progress, and accessing court decisions enhances the transparency and openness of the system.

Keywords: judicial system, digitalization, electronic documents, remote court proceedings, online services, transparency, judicial processes, citizens' rights, judicial efficiency, legal environment, digital technologies, justice, administrative proceedings.

Yangi O'zbekistonda sud-huquq tizimi islohoti

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi
kafedrasi o'qituvchisi TerDU dotsenti

Norquvvat Yangiboyev

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabalari

**Muxammadov Muhammadali Sirodj o'g'li,
Shahriyorov Navro'z Tohirovich**

Annotatsiya: Mazkur maqolada sud-huquq tizimini raqamlashtirish jarayoni kengroq yoritilib, uning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalarning sud faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida ish yuritish jarayonlari sezilarli darajada soddalashayotgani va tezlashayotgani ko'rsatib o'tiladi. Elektron hujjat bilan ishlash tizimining yo'lga qo'yilganliganligi ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirib, ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishni ancha qulaylashtirmoqda.

Shuningdek, masofadan turib, videokonferensiya orqali sud majlislarini o'tkazish imkoniyati fuqarolar va tashkilotlar uchun vaqt va mablag' tejalishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchi ishtirokchilar uchun bu katta yengillik yaratadi. Onlayn xizmatlar orqali ariza topshirish, ish holatini kuzatish va sud qarorlari bilan tanishish imkoniyatining mavjudligi esa tizimning ochiqligi va shaffofligini oshirmoqda.

Kalitlar so'zlar: sud tizimi, raqamlashtirish, elektron hujjatlar, masofaviy sud ishlarini o'tkazish, onlayn xizmatlar, shaffoflik, sud jarayonlari, fuqarolar huquqlari, sud samaradorligi, huquqiy muhit, raqamli texnologiya, adolat, ma'muriy sud ishlarini yuritishni tubdan takomillashtirish.

Sud tizimini isloh qilish va uni raqamlashtirish bugungi kunda eng dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Hozirgi global tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlar adliya tizimining samaradorligini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda.

Xususan, BMT tomonidan ilgari surilgan "Adliya uchun raqamli transformatsiya" dasturi doirasida 2021-yilda dunyoning 73 ta mamlakatida sud tizimini modernizatsiya

qilishga qaratilgan turli loyihalar amalga oshirilgan. Ushbu jarayonlar natijasida sud ishlarini ko‘rib chiqish muddati qisqarib, inson omiliga bog‘liq xatolar kamaymoqda, shu bilan birga fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay va tezkor xizmatlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston ham bu borada ortda qolmay, sud-huquq tizimini tubdan takomillashtirish jarayonida raqamlashtirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab oldi. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston” strategiyasi mamlakatda barcha sohalar qatori sud tizimini ham zamonaviy axborot texnologiyalari asosida rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Mazkur strategiya doirasida sud jarayonlarini soddalashtirish, ma‘lumotlar almashinuvini tezlashtirish va fuqarolar uchun masofaviy xizmatlarni kengaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, 2022-yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida sudlarda elektron hujjat aylanishi tizimi joriy etildi. Bu yangilik sud ishlarini yuritishda qog‘ozbozlikni sezilarli darajada kamaytirib, ish jarayonining tezkorligini oshirdi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, ushbu tizim joriy etilgach, sud ishlarini ko‘rib chiqish jarayoni qariyb 30 foizga tezlashgan. Bu esa nafaqat sud organlari faoliyatining samaradorligini oshirdi, balki fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, sud tizimini raqamlashtirish jarayoni adolatni ta‘minlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning izchil davom ettirilishi sud tizimini yanada ochiq, tezkor va zamonaviy shaklga keltirishga xizmat qiladi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 15-maqsadida aynan sud-tizimini yanada isloh qilish bilan bog‘liq masala yoritilgan;

Ma'muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo'llash sohasini kengaytirish. "Xabeas korpus" institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish. Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish.

Sudlar tizimida "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat'iy nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etish.¹

Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish. Nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda sudyalar hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish, sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishning oldini olish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish.

Sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarni joriy etish. Sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlarini olib borish.²

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.07.2020 yildagi PF-6034-son

² <https://president.uz/>

O‘zbekiston ham sud tizimini isloh qilish jarayonida raqamlashtirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab oldi. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston” strategiyasi mamlakatda davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish bilan bir qatorda sud tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu strategiya sud jarayonlarini soddalashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish hamda fuqarolar uchun yanada qulay va tezkor xizmatlar yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

2022-yilda amalga oshirilgan islohotlar doirasida sud organlarida elektron hujjat aylanishi tizimining joriy etilishi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur tizim orqali hujjatlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish va saqlash jarayonlari avtomatlashtirildi, natijada qog‘oz hujjatlarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada kamaydi. Eng muhimi, bu o‘zgarishlar sud ishlarini yuritish samaradorligini oshirib, jarayonlarning o‘rtacha 30 foizga tezlashishiga olib keldi. Bu esa nafaqat sud organlari faoliyatini yengillashtirdi, balki fuqarolar va tadbirkorlar uchun ham vaqt va xarajatlarni tejash imkonini yaratdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli platformalar orqali kelib tushayotgan murojaatlar soni sezilarli darajada oshgan.

Xususan, elektron shaklda yuborilgan arizalar sonining 40 foizga ko‘paygani kuzatilgan. Bu ko‘rsatkich fuqarolar orasida onlayn xizmatlardan foydalanish darajasi ortib borayotganini anglatadi. Eng muhimi, bu holat sudga murojaat qilish jarayonining yanada ochiq, qulay va hammabop bo‘lib borayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, sud tizimiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi fuqarolarning huquqiy himoyaga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytiribgina qolmay, ularning sud tizimiga nisbatan ishonchini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu

esa kelgusida adolatli va shaffof sud tizimini shakllantirishda muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sud tizimida olib borilayotgan islohotlar va ayniqsa raqamlashtirish jarayonlari bir qator muhim ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Avvalo, samaradorlik sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida sud ishlarini ko‘rib chiqish tezligi o‘rtacha 30 foizga oshgan. Elektron hujjat aylanishi tizimining yo‘lga qo‘yilishi esa ish yuritish jarayonini ancha soddalashtirib, ortiqcha qog‘ozbozlikni kamaytirdi hamda vaqtni tejash imkonini yaratdi. Natijada sud xodimlari o‘z faoliyatini yanada tizimli va tezkor tarzda olib borish imkoniga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari, fuqarolarning sud jarayonlaridagi ishtiroki ham sezilarli darajada faollashgani aniqlangan. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, sudlarga onlayn tarzda murojaat qilayotgan fuqarolar soni 40 foizga oshgan. Bu esa, o‘z navbatida, raqamli xizmatlarning qulayligi, ochiqligi va aholiga yanada yaqinlashganini anglatadi. Fuqarolar endilikda ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflamasdan turib, masofadan turib murojaat yuborish imkoniga ega bo‘layotgani sud tizimiga bo‘lgan ishonchning ortishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamlashtirish nafaqat texnik yangilanish, balki sud tizimi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqayotgan muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasida sud tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri — Prezidentning 2020-yil 24-iyuldagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6034-sonli Farmonini alohida ta’kidlash lozim. Mazkur hujjat sud tizimida ochiqlik, tezkorlik va adolat

tamoyillarini mustahkamlash bilan birga, ayrim toifadagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibini yanada aniqlashtirib berdi.

Ushbu farmonga muvofiq, investitsiyaviy nizolarni ko‘rib chiqish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, yirik investorlar ishtirokidagi investitsiyaviy nizolar, shuningdek, raqobatga oid ishlar bo‘yicha taraflarning xohishiga ko‘ra, mazkur toifadagi ishlar bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan birinchi instansiya tartibida ko‘rib chiqilishi belgilangan.

Bu esa, bunday murakkab va iqtisodiy jihatdan muhim ishlarni yuqori malakali sud organi darajasida ko‘rib chiqish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, qolgan investitsiyaviy nizolar bo‘yicha investorlarga tanlov huquqi berilgan bo‘lib, ular o‘z xohishiga ko‘ra ishni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar yoki Toshkent shahar ma‘muriy sudlarida birinchi instansiya sudi sifatida ko‘rib chiqilishini tanlashlari mumkin. Bunday yondashuv investorlar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratib, ularning huquq va manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Ma‘muriy sudlarning tashkil qilinishi sudlarda mavjud bo‘lgan yuqori yuklamani yengillashtirish, sudyalarning o‘z faoliyatiga jiddiy mas‘uliyat bilan yondashishiga keng imkon yaratadi. Ya‘ni jismoniy va yuridik shaxslar bilan ishlashda ularning har bir talabini chuqur tahlil qilish, qabul qilinayotgan sud hujjatini tayyorlashda uni jamoatchilikka huquq va majburiyatlari tushunarli bo‘ladigan, sud qarorining barqarorligiga shubha tug‘dirmaydigan, sud qarori ustidan shikoyat qilinishiga hojat qoldirmaydigan darajaga yetkazish borasida keng imkoniyatlar yaratiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ham anglash mumkinki, O‘zbekistonda ma‘muriy sudlarni tashkil etish zarurati obyektiv ehtiyoj sifatida yuzaga kelgan. Jamiyatda davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bir sharoitda, bunday nizolarni alohida va ixtisoslashgan sud organlari tomonidan ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ma‘muriy sudlarning joriy etilishi davlat

boshqaruvi organlari faoliyati ustidan samarali sud nazoratini ta'minlash, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish imkonini kengaytiradi.³

Shu o'rinda rivojlangan davlatlar tajribasiga murojaat qilish ham muhimdir. Xususan, Germaniya va Rossiya kabi davlatlarda ma'muriy sudlar alohida sud tizimi sifatida faoliyat yuritadi va ular, odatda, taraflardan biri davlat hokimiyati organi yoki unga tenglashtirilgan subyekt bo'lgan ishlarni ko'rib chiqadi.⁴

Bunday sudlar ijro hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, xizmat vakolatiga ega boshqa subyektlarning qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan kelib tushgan nizolarni hal etishga ixtisoslashgan.

Mamlakatda ma'muriy sudlarni tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari, qarorlaridan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan yetarli huquqiy poydevor mavjud.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonlari, ayniqsa uni raqamlashtirish yo'nalishida olib borilayotgan chora-tadbirlar, odil sudlov sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasida sud ishlarini yuritish tezlashib, ortiqcha

³ <https://kun.uz/>

⁴ <https://inlibrary.uz/>

byurokratik to'siqlar qisqarmoqda, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun esa yanada qulay va ochiq tizim shakllanmoqda.

Shu bilan birga, ma'muriy sudlarning rivojlantirilishi, sud nazoratining kuchaytirilishi va sudyalarning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu o'zgarishlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish hamda sud tizimiga bo'lgan ishonchni oshirishda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Eng muhimi, amalga oshirilayotgan islohotlar faqat texnik yangilanishlar bilan cheklanib qolmay, balki sud tizimining mazmun-mohiyatini o'zgartirib, uni yanada adolatli, shaffof va inson manfaatlariga xizmat qiladigan tizimga aylantirishga qaratilgan. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi islohotlarning izchil davom ettirilishi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim kafolatlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.07.2020 yildagi PF-6034-son

2. <https://president.uz/>

3. <https://kun.uz/>

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

5. <https://inlibrary.uz/>